

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/2 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Полвонов Козимбек

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД

МАЪЛУМОТЛАР 10-15

Hadjamuratova Matlyuba

МАКТАБГАСНА ТА’ЛИМДА БОЛАЛАРНИ ИЈТИМОЙ НИМОYA QILISHGA INNOVATSION

YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI 16-21

Шовкатов Шокир Шовкат ўғли

АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР 22-31

Mo‘minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘g‘li

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O‘ZGARISHLAR VA

ULARNING АНАМИЯТИ 32-36

Пардаев Асрор

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕЪМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ

МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ 37-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи

ЖАХОНДА ТИББИЙ СУҒУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ 43-52

Рахманов Зафар

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ

ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ 53-62

Аминов Фазлитдин Бахадирович

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ

РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 63-70

Курбонова Шахриноз Авазхоновна

ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР

ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ 71-81

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O‘RNI 82-87

Rajabov Orzujon Mamasoliyevich

LOGISTIKA XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF

THINGS)DAN FOYDALANISH 88-93

Саидов Сарвар Хайруллоевич

ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ 94-104

Сержанов Аймурат Медетбаевич

ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ

ЗАРУРИЯТИ 105-111

Туробов Шерзод Алишеревич, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ

ТАЖРИБАСИ 112-119

Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA HORIJY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH

YO‘LLARI 120-126

Temirova Feruza Sagdullayevna

XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK 127-132

Sharipova Shaxzoda Xasanovna

YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 133-138

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Алимова Шахноза Хамидовна

НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОЙ-ДЕМОГРАФИК
ГУРУҲ СИФАТИДА 139-147

Асракулова Адипа Набиевна

“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ
ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ
АҲАМИЯТИ 148-154

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Teshabayeva Dilfuza Muminovna

LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS
MEDIA 155-160

Rustamov Ilxom Tursunovich, Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi

INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING
TADQIQOTLARI VA QARASHLARI 161-165

Abdikhmidova Sevinch Obidjon kizi

PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS 166-170

Djurakulova Elmira Suyunova

SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN 171-177

Dalieva Madina Khabibullaevna

THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR 178-183

Жўраева Ирода Ахмедовна

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУҒАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ 184-189

Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna

INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI
BIRLIK LARNING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI 190-193

Irgasheva Shoxida Sadriddinovna

INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH
XUSUSIYATLARI 194-200

Tursunova Zarina Farxodovna

LINGVISTIKADA EMOTLARNI O'RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI
ASOSIDA)..... 201-205

Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich

PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF
TURKOPHONES 206-212

Radjabova Hafiza Shukrulloevna

INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI 213-220

Avezova Dilorar Salimovna

TAXALLUSLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATI 221-225

| | |
|---|---------|
| <i>Alikberova Kamila Adhamovna</i> A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION | 226-232 |
| <i>Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi</i> THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS | 233-238 |
| <i>Valieva Nargizakhon Zamir kizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT | 239-244 |
| <i>Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI | 245-251 |
| <i>Alimova Kamola Tursunovna</i> CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS | 252-258 |
| <i>Сейтумбетова Айкумар Пулатбаевна</i> ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ..... | 259-264 |
| <i>Бегжанова Айсилиу Махмудовна</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ | 265-270 |
| <i>Kubanova Ilmira Sharifovna</i> EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS | 271-275 |
| <i>Azamjonova Sarvinoz</i> USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA | 276-282 |
| 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР | |
| <i>Muxiddinova Dildora Muxiddinova</i> O'ZBEKISTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KIOTO KONVENSIYASINI JORIY ETISHNING HUQUQIY JIHATLARI VA JSTGA A'ZOLIKNING TA'SIRI | 283-292 |
| <i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i> SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATI INSTITUTINING MUHIM OMILI | 293-298 |
| <i>Mustanov Ilxom Abdivalijonovich</i> BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI | 299-304 |
| <i>G'oyibov Jo'rabek Choriyevich</i> YOSHLAR MIGRATSIYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI | 305-309 |
| 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ | |
| <i>Kuziyev Otabek Chuliyevich</i> TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM UCH BOSQICHI | 310-314 |
| <i>Fattaxova Diloram</i> TIL O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI | 315-321 |
| <i>Moydinova Elmira</i> APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY | |

| | |
|--|---------|
| CLASSROOM | 322-326 |
| <i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i> | |
| ZAMONAVIY BOSHLAG'ICH TA'LIMDA 4K MODEL KOMPETENSIYALARINI | |
| RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI | 327-333 |
| <i>Doniyorova Gulrux Shoniyozovna</i> | |
| AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI | |
| RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI | 334-338 |
| <i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> | |
| RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING | |
| ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI | 339-344 |
| <i>Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna</i> | |
| DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI | |
| RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA | 345-351 |
| <i>Mamaraimov Bekzod Qodirovich</i> | |
| O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING | |
| QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI | 352-356 |
| <i>Xudayberdiev Nurislam Nuralievich</i> | |
| BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING | |
| TASHKILIIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI | 357-363 |
| <i>Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich</i> | |
| TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: | |
| IMKONIYAT VA CHEGARALAR | 364-369 |
| <i>Teshaboyeva Shahodat</i> | |
| ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI | 370-375 |
| <i>To'rayeva Dilnoza Ismoilovna</i> | |
| RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI | |
| RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA | 376-380 |
| <i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i> | |
| MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA | |
| INNOVATSION JARAYONLAR | 381-388 |
| <i>Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich</i> | |
| HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI | |
| SHAKLLANTIRISH | 389-393 |

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich
Andijon davlat universiteti
"O'zbekiston tarixi" kafedrasi dotsenti.

Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li
Andijon davlat universiteti "Tarix" fakulteti 3-kurs talabasi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O'ZGARISHLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan sud tizimining yaqin o'tmishdagi tarixi va unga kiritilgan o'zgarishlarning tarixi ilmiy-tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Bu orqali O'zbekistondagi sudlar faoliyati xalq manfaati yo'lida demokratlashtirib borilayotganligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Sud, organ, fuqaro, modda, qonun, huquq.

Muminov Xusanboy Madaminjonovich
Associate Professor at the department of
"History of Uzbekistan" of Andijan State University.

Kodirjonov Omadjon Tavakkaljon ugli
3rd year student at the faculty of
"History" of Andijan State University.

CHANGES TO THE COURT LEGISLATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THEIR SIGNIFICANCE

Abstract: This article, based on scientific and historical sources, highlights the recent history of the current judicial system in the Republic of Uzbekistan and the history of changes made to it. This shows that the work of courts in Uzbekistan is being democratized for the benefit of the people.

Keyword: Court, body, citizen, article, law, right.

Муминов Хусанбой Мадаминжонович
Доцент кафедры «История Узбекистана»
Андижанского государственного университета.

Кадиржонов Омаджон Таваккалжон угли
Студент 3 курса факультета "Истории"
Андижанского государственного университета.

ИЗМЕНЕНИЯ В СУДЕБНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И ИХ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация: В данной статье на основе научно-исторических источников освещена новейшая история действующей судебной системы в Республике Узбекистан и история изменений, внесенных в нее. Это показывает, что работа судов в Узбекистане демократизируется на благо народа.

Ключевые слова: Суд, орган, гражданин, статья, закон, право.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N04>

Kirish. 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qildi hamda jahondagi barcha mamlakatlar bilan teng huquqli davlat ekanligi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etildi. O'zbekistonda milliy boshqaruv tizimini joriy etish kunning eng dolzarb masalasiga aylandi. Jahon miqyosida davlat boshqaruv tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyatlariga bo'linadi. Ushbu boshqaruv va hokimiyat organlari mustaqil holatda faoliyat olib borishini ta'minlash konstitutsion darajaga ko'tarildi. Natijada, sud hokimiyatining mustaqilligi ta'minlandi. Aytish lozimki, sobiq sovet davrida sud hokimiyati mavjud bo'lishiga qaramay, u tom ma'noda mustaqil organ sifatida shakllantirilmagan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng bu masala qayta ko'rib chiqilib sudlar O'zbekistonda mustaqil organga aylantirildi, hamda ushbu organ faoliyatini yaxshilab borish maqsadida sud hokimiyatining faoliyat yuritish sistemasiga o'zgartirishlar kiritilib borilmoqda. Jumladan ushbu o'zgartirishlar orasida 1993-yildagi va 2000-yildagi o'zgartirishlar muhim ahamiyat kasb etgan. O'zbekiston sud tizimiga kiritilgan oxirgi o'zgartirishlardan biri 2021-yilda qabul qilingan "Sudyalar to'g'risida"gi qonun bo'ldi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu maqola tarixiy tadqiqotlarning ilmiy xolislik, mantiqiy izchillik, qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi usullari asosida yozildi.

Natijalar. Bugungi kunda butun dunyoda sud organlari hokimiyatning mustaqil organi sifatida faoliyat olib bormoqda, shu sababli ushbu organga turlicha tariflar berilmoqda. Jumladan, "Oxford Languages" lug'ati quyidagicha ta'rif beradi: "sud – fuqarolik va jinoiy holatlar bo'yicha sud vazifasini bajaruvchi sudya raisligidagi guruh, sudya yoki hakam" [1]. "Encyclopedia Britannica" ingliz universal ensiklopediyasiga ko'ra esa, sud terminining izohi: "sud – bu sud, fuqarolik, jinoiy, diniy yoki harbiy ishlar bo'yicha nizolarni ko'rish va hal qilish uchun sud vakolatiga ega bo'lgan shaxs yoki shaxslar organi" [2].

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da sud terminiga shunday ta'rif berilgan: "Sud (*slavyancha*, sud – "ish") — odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi; muayyan davlatning qonunlariga asosan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa toifadagi ishlarni ko'rib chiqadi va hal qiladi. Ayrim shaxslar o'rtasida, ular bilan davlat idoralari, korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyati, jamoat birlashmalari o'rtasida mulkiy va nomulkiy nizolarni, qonunbuzarliklarga doir ishlarni ko'rib chiqib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxona, muassasalar, tashkilot huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladi. Sud boshqa davlat organlaridan, jamoat birlashmalari va har qanday shaxsdan mustaqil va xolisona faoliyat yuritishi, barcha ishlarni faqat qonunga bo'ysunib ko'rib chiqishi va hal etishi lozim" [3]. Bundan tashqari "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa "sud" deb — (qadimgi rus tilida, sud — "ish"; "hukm") 1. Muayyan fuqaroviy (ayrim shaxslar yoki muassasa va tashkilotlar o'rtasidagi, shaxslar bilan muassasa va tashkilotlar o'rtasidagi) nizolarni hal qiluvchi hamda jinoiy ishlarni ko'rib chiquvchi — odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi. 2. Shunday organ joylashgan bino, xona, joy. 3. Shunday organ xodimlari yoki sudyalari hay'ati. 4. Fuqaroviy yoki jinoiy ishning shunday organda ko'rilishi. Sud II [forscha, — foyda, daromad; foiz] 1. Eski, Foyda, naf. 2. Sudxo'rlar tomonidan qarzga berilgan pul evaziga olinadigan foiz [4].

1993-yil 6-mayda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini tartibga solishga qaratilgan edi [5]. 1993-yil 2-sentyabr Oliy Kengashning XI sessiyasida “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi va bu qonun orqali O‘zbekistondagi sud organlarini tashkiliy asoslari, sudyalarning mustaqilligi kabi masalalar hal etildi [6]. Ushbu qabul qilingan qonunning 2-moddasi. “Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi. Sud hokimiyatining mustaqilligi” to‘g‘risida bo‘lib ushbu moddada: “O‘zbekiston Respublikasida odil sudlovni faqat sud amalga oshiradi. Sudyalarning mustaqilligi, faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi”, deyilgan. Bu modda sudlarning mustaqil faoliyat olib borishining muhim kafolati bo‘ldi.

7-moddasi “Sudlov olib boriladigan til” to‘g‘risida bo‘lib, bu moddada: “O‘zbekiston Respublikasida sud ishlari o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda yuritiladi. Sudlov olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish va sudlov harakatlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta‘minlanadi”[7]. Bu modda esa O‘zbekistonda milliy ozchilikni tashkil etuvchi ko‘plab millat vakillarining huquqlarini himoya qilgan holda, ularga sud organlariga murojaat qilish imkoniyatini osonlashtirishga xizmat qiladi. Tabiiyki bu sudning shaffof va adolatli bo‘lishi bilan birga, sud jarayoni vaqtida bo‘lishi mumkin bo‘lgan anglashilmovchiliklarning ham oldini oladi.

2000-yil 14-dekabrda ushbu qonun yangi tahrirda qabul qilinadi. Ushbu yangi tahrirdagi qonunda sudning vazifalari, odil sudlovning amalga oshirilishi va sud hokimiyatining mustaqilligi alohida-alohida 2, 3, 4-moddalarda belgilab qo‘yildi. Bu esa keyingi yillarda sud tizimining mustaqilligiga alohida e‘tibor berilganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari 3-moddada sudlov ishlarini faqatgina sud organi amalga oshirishi mumkinligi ham qat‘iy belgilab qo‘yildi. Bu ham sudlar faoliyatiga boshqa organlarning aralashishini oldini olishga xizmat qilgan hamda sudyalarning to‘la mustaqil faoliyat olib borishini ta‘minlagan.

7-moddasi “Sudlov olib boriladigan til” esa 8-moddasi “Sud ishlari yuritiladigan til” moddasiga quyidagicha o‘zgartiriladi: “O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta‘minlanadi” [8].

1993-yildagi “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasida sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi qoidasiga qat‘iy rioya qilinishini O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi amalga oshirishi belgilangan edi. 2000-yildagi qonunning 11-moddasida esa bu vazifa O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashiga o‘tkazildi. Yuqorida aytib o‘tilgan hokimiyatning bo‘linish prinsiplari qonuniyati, aynan ushbu o‘zgarish orqali mustahkamlandi.

“Sudyalari to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilingan yillarga qaraydigan bo‘lsak 1993-yilda 84 moddadan iborat qilib qabul qilingan bo‘lsa 2000-yilda 85 modda hamda 2021-yildagi qonunda esa 101 moddadan iborat bo‘ladi.

Sudyalarning yoshiga qo'yilgan talablar ham, ushbu yillardagi qonunlarga ko'ra birmuncha farq qiladi. Misol uchun 1993-yildagi qonunning 62-moddasida "O'zbekiston Respublikasining 25 yoshga to'lgan, oliy yuridik ma'lumotli, huquq ixtisosi bo'yicha kamida ikki yillik mehnat stajiga ega bo'lgan, malaka imtihonini topshirgan fuqarosi tuman (shahar) sudi, xo'jalik sudi sudyasi etib tayinlanishi mumkin." deyilgan bo'lsa, 2000-yildagi qonunning 61-moddasida sudyalikka nomzodlarga quyidagicha talab qo'yilgan "O'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, oliy yuridik ma'lumotga va yuridik ixtisosligi bo'yicha, avvalambor, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining, tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudining, tuman (shahar) ma'muriy sudining, hududiy harbiy sudning sudyasi bo'lishi mumkin." 2021-yildagi qonunning 67-moddasida ham yosh chegasi sifatida 35 yosh belgilangan. E'tibor beradigan bo'lsak, har uchala qonunda ham sudyalikka nomzodlarga oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish talabi qo'yilganligi, ularning o'z sohasi bo'yicha yetuk bilim va malakaga ega bo'lishini ta'minlaydi. Sudyalar O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishlari esa chet el fuqarolarining O'zbekiston sud tizimiga aralashuvini oldini oladi.

Sudyalarning daxlsizligi huquqi 1993-yilda qabul qilingan qonunning 70-moddasida, 2000-yildagi qonunning 70-moddasida belgilangan bo'lsa 2021-yilda qabul qilingan qonunda ushbu huquqqa ko'proq e'tibor berilgan holda 64-moddada belgilab qo'yilgan. Har uchala qonunda ham sudyalarga nisbatan jinoyat ishini faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek sudyalarga qurol berish masalasi ham turli davrlardagi qonunlarda quyidagicha belgilangan. 1993-yildagi qonunning 70-moddasida hamda 2000-yildagi qonunning 70-moddasida (bu moddaning 2-qismidan 2017-yil 12-aprelda "Oliy xo'jalik sudi raisi" degan so'z chiqarib tashlangan) "Sudyalarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash maqsadida ularga tegishli O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Raisi, Oliy xo'jalik sudi Raisi, Adliya vaziri tomonidan belgilangan ro'yxatga binoan o'qotar qurol beriladi. Zarur hollarda esa, tegishli sud raisining qaroriga binoan ichki ishlar organi unga va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratadi." deyilgan bo'lsa, 2021-yildagi qonunning 64-moddasi 2-qismida "Sudyalarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash maqsadlarida ularga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha saqlash, olib yurish va undan foydalanish huquqi bilan xizmat quroli hamda shaxsiy himoya vositalari beriladi. Zarur hollarda tegishli sud raisining qaroriga binoan ichki ishlar organi sudya va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratadi." deb ko'rsatilgan. Bu esa shuni ko'rsatadiki sudyalarning daxlsizligini saqlash masalasi, ushbu islohotlar natijasida yanada mustahkamlandi hamda sud organining ijroiya hokimiyatidan mustaqil holda faoliyat olib borishi prinsipini yanada mustahkamladi.

Shu o'rinda, 13-dekabr 1924-yil O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya qo'mitasi Qarori bilan RSFSR Oliy Sudi Turkiston ASSR bo'linmasi o'rnida tashkil etilgan O'zbekiston SSR Oliy Sudi haqida ham eslab o'tish kerak chunki, ushbu organ O'zbekiston tarixidagi birinchi Oliy Sud bo'lib, alohida asosda tashkil etilishiga qaramay, hozirgi sudlardan farq qilgan holda mustaqil hokimiyat organi sifatida boshidanoq faoliyat olib bora olmadi. Ushbu organ O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi qoshida tuzilgan va unga bo'ysunar edi, shuning uchun ushbu organ chiqaruvchi hukmlar ham O'zbekiston SSR MIK Prezidiumi fikri bilan bog'liq edi, hamda zarurat tug'lsa ushbu organ hukmni osonlik bilan o'zgartirar edi [9]. Bu esa bugungi kundagi

O'zbekistondagi sud tizimining sovet davridagi sud tizimidan demokratik va adolatli ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida esa bunday holatning oldi olingan holda yuqorida qayd etilganiday avval boshidanoq sud organi mustaqil hokimiyat sifatida ajratib olingan hamda ushbu organ vakillarining daxlsizligi qonun doirasida ta'minlangan. Bu orqali, fuqarolarning haq-huquqlari qonunda belgilanganiday to'liq himoyalaniishi kafolatlanadi.

Xulosa. Qonunchilikka yana ko'plab o'zgartirishlar kiritiladi chunki ma'lum bir davrda foydali bo'lgan qonunchilik vaqt o'tgan sari eskirib yangi davrda fuqarolarning yumushlarini qiyinlashtirishi mumkin shuning uchun qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilib boriladi. Bunga ko'plab omillar ta'sir etishi mumkin jumladan yangi zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi ya'ni bunga yorqin misol raqamli texnologiyalarning yurtimizga jadal kirib kelayotganini misol qilib keltirishimiz mumkin bo'la oladi, zero bunday texnologiyalar sud-huquq tizimida faoliyat olib borayotgan insonlar va ushbu organga murojaat etuvchi insonlarning ishini osonlashtiradi, yana qo'shni mamlakatlarning tajribalaridan namunalar olish ham ta'sir qilishi mumkin, ammo eng muhim omil, doimo fuqarolarning huquqlarini himoya qilishning har tomonlama qulay va ishonchli usullarini joriy etish hisoblanadi, shu boisdan ham yurtimizdagi sud tizimi qonunchiligiga vaqti-vaqti bilan o'zgartirishlar kiritilib boriladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Oxford Languages. URL: <https://languages.oup.com/google-dictionary-en>
2. Encyclopædia Britannica - <https://www.britannica.com/search?query=court>
3. Суд // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Б.106.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. Н – Тартибли / Таҳрир ҳайъати: Т. Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – В.580-581.
5. Rustamboyev M.H., Nikiforova Ye.N. Sud va huquqni muhofaza qilish organlari. Darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2007. – B.67.
6. Shamsutdinov R, Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Akademnashr 2019. – B.473.
7. LexUz. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-68425>
8. LexUz. URL: <https://lex.uz/docs/-68532>
9. Топилдиева М. Ўзбекистон ССРда судлар тизимидаги долзарб масалалар // International Scientific Conference. – Tashkent, Volume 3, April 2022. –P.1053.
10. Ismoiljonova M.I. Mo'minov X.M. O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud tizimi va bu sohada o'tkazilgan islohatlar // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture (EJSSPC). – Tashkent. Vol. 4, No.1. January 17, 2024.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/2 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).